

## KONSEPTNING RUS VA O‘ZBEK TILLARIDAGI TADQIQI

**Rahimov Fayziddin Rustamovich**

TTYeSI “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrası

1 kurs doktoranti

[fayziddinrahimov88@gmail.com](mailto:fayziddinrahimov88@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda butun dunyo tilshunosligida antropotsentrik paradigmaning yangi yo‘nalishlarida izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, lingvokulturologiyaning eng dolzarb qirralaridan biri bu – konsept tushunchasi bo‘lib, uning o‘rganilishiga doir nazariy qarashlar rus tilshunosligida va o‘zbek tilshunosligida qay darajada o‘rganilganligi juda muhimdir. Zero, bu konseptning ochilmagan qirralariga e‘tiborni yanada kuchaytirishi tabiiy.

**Kalit so‘zlar:** lingvokulturologiya, madaniyat, konsept, milliy til, tushuncha.

### ABSTRACT

Today, research is being conducted in new directions of the anthropocentric paradigm in linguistics all over the world. In particular, one of the most relevant aspects of linguistics is the concept concept, and it is very important to what extent the theoretical views on its study are studied in Russian linguistics and Uzbek linguistics. After all, it is natural to draw attention to the undiscovered aspects of this concept.

**Key words:** linguistic culture, culture, concept, national language, concept.

### АННОТАЦИЯ

Сегодня исследования ведутся по новым направлениям антропоцентрической парадигмы в языкознании во всем мире. В частности, одним из наиболее актуальных аспектов языкознания является концепт-концепт, и очень важно, насколько теоретические взгляды на его изучение изучены в русском языкознании и узбекском языкознании. Ведь естественно обратить внимание на нераскрытые аспекты этой концепции.

**Ключевые слова:** языковая культура, культура, концепт, национальный язык, концепт.

### KIRISH

Konsept til madaniyat tadqiqiga xizmat qiladi, madaniyat asosida muayyan bir xalqning qadimdan shakllanib kelgan qadriyatlarini yotadi. Har bir konsept murakkab

mental uyg'unligi, ma'noviy tuzilishdan tashqari insonni ifodalayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy-individual komponentlarni o'z ichiga oladi. Til leksikasi insoniyat madaniyatini ifodalovchi vosita sifatida dunyoning bir-biridan farq qilmaydigan xalqlarida aks etgan muayyan madaniy konseptual tushunchalarni aniqlashga va mazmun mohiyatini ochib berishga yordam beradi.

XX asrning 90-yillarida Teliye rahbarligida Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida vujudga kelgan tilshunoslikning yangi yo'nalishi lingvokulturologiya jonli milliy tilda va til jarayonlarida nomoyon bo'ladigan moddi va ma'naviy madaniyatni o'rganadigan ijtimoiy fandır. Bu yo'nalish antroposentrik paradigmaning yangi yo'nalishi sifatida bir qator yangi tushunchalarni paydo qildi, jumladan, lingvomadaniyat, madaniy salohiyat, madaniy me'ros, madaniy konsept, madaniy til kabilar. Shular qatorida hozirgi kunning muhim va dolzarb mavzularidan biri konseptdir. Bu termin lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikning muhim kategoriyalaridan hisoblansa-da, ikki yo'nalishda o'ziga xos ikki xil tushunchani anglatadi. Lingvokulturologiyada konsept rus tilshunosi Askaldokovning takidlashicha konseptlar yordamida turli millat vakillari muloqotga kirishadi va ulisoniy makonda mavjud bo'lgan bu u tizim dunyo milliy nazariyasining o'ziga xosligini ifodalaydi. Konsept inson oggidagi madaniyat va madaniyatning inson olamiga kirishining ko'rinishidir. E'tibor beraadigan bo'lsak rus tilshunosligida konseptga oid fikrlar juda ko'p uchraydi. Yana bir rus tilshunosi V.Z. Demyankov "Badiiy va ilmiy tilda konsept va tushuncha" ilmiy ishida "konsept" terminining lotin, fransuz, italyan, ispan, nemis, ingliz va rus tillarida qo'llanishini ko'rib chiqib quyidagi xulosalarga kelgan: a) dastlab "konsept" termini lotin tilida *conceptus* "ibtidoiy, boshlang'ich, holat" ma'nolarida qo'llangan. Italyan va ispan tillarida konsept (*concetto*, *concepto*) badiiy adabiyot tekstlarida azaldan uchrab kelgan va ko'pgina idiomalarda uchraydi; b) nemis tilida esa konsept (*konzept*, *konsept*) termini "xomqolip", ya'ni rus tilidagi "konspekt" ma'nosida qo'llangan. Ingliz tilida esa konsept (*concept*) falsafa termin sifatida ishlatiladi. Rus tilida konsept 1920 – yillardan boshlab 1970 – yillargacha "tushuncha" terminining sinonimi sifatida qo'llangan. Yuqoridagilarni o'rganib chiqib olim V.Z.Demyankov konsept terminining ma'nosini talqin qilishda uning lotin tilidagi ma'nosini asos qilib olib, konsept termini "boshlang'ich ma'no" degan g'oyaga ega degan fikrga keldi.<sup>1</sup>

Shuningdek, V.Z.Demyankovning ta'kidlashicha, "tushuncha" va "konsept" so'zlari o'rtasidagi farq quyidagicha aks etgan: tushuncha tafakkurning mantiqiy

<sup>1</sup> Демьянков.В.З. понятие и концепт в художественной литературе и научном языке// Вопросы филологии. – Москва,2001. – №1(7)ю С – 45

shakillaridan biri hisoblanib, insonlar uning yordamida voqelikni anglyadilar, konsept esa shaxs tomonidan borliqning u yoki bu qismini anglab, tasavvur qilish orqali to'plangan axborotdan iborat. Konseptlar kuzatilyotgan hodisalarni jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan yagona, aniq kategoriya va sinflarga jamlaydi<sup>1</sup> degan xulosaga keladi.

S. Yu. Stepanov esa konsept va tushunchani o'zining quyidagi fikrlari orqali farqlab bergan: Jumladan, tushuncha – predmet va hodisalar to'g'risidagi umumiy va xususiy belgilarini aks ettiradigan fikr, deb qaralsa konsept – nafaqat mavhumiy bo'lgan, balki aniq – assotsiativ va emotsional – baholovchi belgilarni qamrab olgan g'oya sanaladi<sup>2</sup>, degan fikrni ilgari suradi. Va ushbu termini lingvomadaniyat bilan bog'lagan holda konsept madaniyatning ba'zaviy birligi hisoblanib, uning tarkibini konseptni madaniyat birligi deb hisoblashga asos bo'la oladigan belgilar, ya'ni etimologiyasi, konsept tarixi zamonaviy assotsialari, munosabat(baholash) va boshqalar tashkil qilishini<sup>3</sup> ta'kidlab o'tgan.

Shuningdek, konsept V.A.Maslova ishlarida ham o'rganilib chiqilgan. U konsept ma'nosiga ko'p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o'ylanadigan, balki ular o'zlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnatatsiyani o'z ichiga olishini ko'rsatadi va konsept tuzilishida o'zgacha nuqtai nazar borligini ta'kidlaydi.

Konseptlar, odatda, inson turmush tarzi bilan bog'liq ma'lum tushunchalarni maxsus qoliplarga solish, lisoniy va madaniy mavjudligini belgilashga qaratiladi.

D. S. Lixachevning keltirishicha kontsept – bu individual anglash jarayoni va ma'lum kontekstda so'z ma'nosini almashtirish hisoblanadi<sup>4</sup>. Ushbu fikrdan aytish mumkinki, konsept turli lingvomadaniyatda o'ziga xos shakllanishga ega sanaladi. Kontseptlar, o'z navbatida, so'z ma'nolariga nisbatan keng talqin etiladigan, murakkab tipologik qurilmaga ega birlikdir.

Rus tilshunosining yana bir vakili L.V.Adonina konsept terminiga bag'ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12ta ta'rifini keltiradi. Shuningdek, uning ma'lumotiga ko'ra, konsept termini o'n nuqtayi nazardan tasnif qilingan. Masalan, konsept standartlashishiga ko'ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga; qo'llanishiga ko'ra ilmiy,

<sup>1</sup>Демьянков.В.З. понятие и концепт в художественной литературе и научном языке// Вопросы филологии. – Москва,2001. – №1(7)ю С – 35

<sup>2</sup> Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. –М: Школа —Языки русской культуры, 1997. – 41 с

<sup>3</sup>Степанов Ю. С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.:Языки русской культуры, 1997. – 41с

<sup>4</sup> Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М., Academia, 1997. – С. 280 – 287.

badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko'ra leksik – frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga bo'linadi, deya aytadi.

O'zbek tilshunosligida ham konsept terminiga bir qator fikrlar mavjud bo'lib, dastlab N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan batafsil izohlangan.

D.U.Ashurova konsept deb hamma tushunchalarni ham atash noto'g'ri, balki dunyo va milliy madaniyat sohalarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan elementlarga konsept deb atalishi mumkinligini<sup>1</sup> aytadi.

Konsept so'zsiz uchlikdan - "madaniylik, mentallik, til"dan iboratligini aytdan Yusupov konseptni o'rganish tilning o'ziga xos xususiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Tilni lingvomadaniyatshunoslik jihatdan o'rganishda o'sha xalqning mentalitetini ifodalaydigan milliy-madaniy asos konseptlarga ko'proq e'tiborni qaratish kerakligini ta'kidlaydi.

Lingvokulturologik kontsept etnomadaniy xususiyatga ega bo'lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga ega informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. Kontsept madaniy universalialarni ifodalaydi.

Tilshunos olimlarning bu tizimdagi fikrlari shuni ko'rsatadiki, lingvokulturologik kontsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o'taydi va kontsept milliy xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniy omil sanaladi. Shuning uchun ham har bir xalqning konsepti o'ziga xosdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики // Филологиянинг долзарб муаммолари: Маъруза тезислари. – Тошкент, 2008. – Б.11.

2. Демьянков.В.З. понятие и концепт в художественной литературе и научном языке// Вопросы филологии. – Москва,2001. – №1(7)ю

3. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М., Academia, 1997. – С. 280 – 287.

4. Степанов Ю. С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.:Языки русской культуры, 1997. – 41с

---

<sup>1</sup> Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики // Филологиянинг долзарб муаммолари: Маъруза тезислари. – Тошкент, 2008. – Б.11.